



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI



KRIMINOLOGIK FAOLIYAT

ILMIY-AMALIY JURNAL

O'z.KTI

№2– 2025 (3) ISSN: 3060-5024



KRIMINOLOGIK FAOLIYAT

ILMIY-AMALIY JURNAL

№2 / 2025 (3)

ISSN: 3060-5024

MUASSIS: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI

Tahrir hay'ati raisi
Berdialiyev Baxtiyor Erkinovich
Institut boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa
doktori

Tahrir hay'ati a'zolari
Niyazmetov Ikrom Masharipovich
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
mas'ul xodimi, tahrir hay'ati raisi o'rinbosari
Sharafutdinov Alisher Ozodovich
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan
yurist, dotsent

Jalolov Baxtiyor Odilovich
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan
yurist

Ismailov Isamiddin
yuridik fanlar doktori, professor
Ziyodullayev Muzaffar Ziyodullayevich
yuridik fanlar doktori, professor

Otajonov Abrorjon Anvarovich
yuridik fanlar doktori, professor
Rajabov Baxtiyor Almaxmatovich
yuridik fanlar doktori, professor

Xujakulov Siyovush Baxtiyorovich
yuridik fanlar doktori, professor

Safarov Djahongir Ismoilovich
yuridik fanlar doktori, dotsent

Ganiyev Sherzod Alisherovich
yuridik fanlar doktori, dotsent

Ollamov Yarash Yo'ldoshevich
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Azim Shuhrat Obid o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Bazarov Farrux Abdugafurovich
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Mirzayev Jahongir Umrzakovich
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Sirliyev Baxtiyor Nazarovich
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
professor

Yernazarov Solijon Yerkinovich
iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori

Yarov Bekmamat Alikulovich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, bosh
muharrir

MUNDARIJA

KRIMINOLOGIK TAHLIL

Berdialiyev B.E.
Ijtimoiy profilaktikaning kriminogen vaziyatga ta'siriga oid nazariyalar
va olimlarning fikrlari 3

Кабулов Р., Буранова Р.
Причины и условия, способствующие совершению преступлений
составляющих незаконный оборот наркотических средств, их
аналогов или психотропных веществ 11

Исаев С.А.
Пиротехника и её разрушительное воздействие на окружающую
среду: путь к экологичной альтернативе 20

Boltayev M.M.
Surxondaryo viloyatida oila-turmush doirasidagi jinoyatlar holatining
tahlili 25

Rixsimov K.A.
Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslar tomonidan
qayta jinoyat sodir etilishining sabab va sharoitlari: kriminologik tahlil 36

Алламбергенов И.С.
Кибермошенничество: взаимозависимость метода совершения
преступления и характеристик личности преступника 41

KRIMINOLOGIK TADQIQOT

Andrea Domokos, Alokxonov Mukhammadmirzokhan
The importance of modern criminology in combating
and preventing crime 49

Niyozova S.S.
Qasddan odam o'ldirishning ijtimoiy xavfliligi va javobgarlik masalasi 55

Kaxarova M.M.
Kibero'g'irlik: zamonaviy xavf, huquqiy tahdid va oldini olish
chora-tadbirlari 64

Иканов А.А., Тазетдинов Р.Р.
Психологические аспекты нанесения умышленных тяжких
телесных повреждений среди несовершеннолетних 70

A'loxonov M.A.
Zamonaviy kriminologiyada jinoyatchilikni tadqiq etish va uni oldini
olish tizimini takomillashtirish 77

O'rinova D.A.
Jinoyatchi ayollar shaxsini o'rganishning kriminologik asoslari 83

Tahririyat manzili:
100187, Toshkent shahri
Mirzo Ulug'bek tumani
Buyuk ipak yo'li ko'chasi, 243
Tel.: +998 (71) 231-39-77
Elektron pochta: info@uzkti.uz
Website: kti.iiv.uz

© O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
Jurnal 2024-yil 21-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669658 raqami bilan ro'yhatga
olingan.
O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2025-yil 12-
fevraldagi 367/5-son qarori bilan yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan
doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy
natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.

JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLAR TOMONIDAN QAYTA JINOYAT SODIR ETILISHINING SABAB VA SHAROITLARI: KRIMINOLOGIK TAHLIL



Rixsimov Komron Abrorovich

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti ilmiy xodim-tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etish holatlari, ularning asosiy sabab va shart-sharoitlari tahlil etilgan. Qayta jinoyatchilikni keltirib chiqaradigan shaxsiy, ijtimoiy-iqtisodiy, jazo va reabilitatsiya tizimi va axloqiy tarbiya bilan bog'liq omillar o'rganilib, mavjud profilaktik mexanizmlarning samaradorligiga baho berilgan.

Kalit so'zlar: qayta jinoyatchilik, jazoni ijro etish muassasalari, ozod etilgan shaxslar, ijtimoiy omillar, ilmiy yondashuv, profilaktika

КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРИЧИН И УСЛОВИЙ ПОВТОРНОГО СОВЕРШЕНИЯ ПРЕСТУПЛЕНИЙ ЛИЦАМИ, ОСВОБОЖДЕННЫМИ ИЗ УЧРЕЖДЕНИЙ ПО ИСПОЛНЕНИЮ НАКАЗАНИЙ

Аннотация: В статье проанализированы случаи рецидива преступлений лицами, освобожденными из учреждений исполнения наказаний, а также основные причины и условия, способствующие повторному совершению преступлений. Изучены личные, социально-экономические факторы, а также аспекты, связанные с системой наказаний, реабилитации и нравственного воспитания, дана оценка эффективности существующих профилактических механизмов.

Ключевые слова: рецидивизм, учреждения исполнения наказаний, освобожденные лица, социальные факторы, научный подход, предупреждение преступлений.

CAUSES AND CONDITIONS OF RECIDIVISM AMONG INDIVIDUALS RELEASED FROM PENAL INSTITUTIONS: A CRIMINOLOGICAL ANALYSIS

Abstract: This article analyzes cases of recidivism among individuals released from penal institutions, as well as the main causes and conditions contributing to the reoffending. Personal and socio-economic factors, along with aspects related to the penal system, rehabilitation, and moral education, are examined, and an assessment of the effectiveness of existing preventive mechanisms is provided.

Keywords: recidivism, penal institutions, released individuals, social factors, scientific approach, crime prevention

Bugungi kunda jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarning ma'lum qismi tomonidan qayta jinoyat sodir etilishi jiddiy muammolardan biri bo'lib, uni ilmiy asosda o'rganish va amaliy yechimlarini ishlab chiqish, jamiyat barqarorligi hamda huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash yo'lidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, respublikada 2024-

yilda jami jinoyat sodir etgan shaxslar orasida muqaddam sudlanganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning ulushi 10,8 foizni tashkil etmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda jazo muddatini o'tab, ozodlikka chiqqandan so'nggi ikki yil mobaynida qayta jinoyat sodir etgan shaxslar ulushi bo'yicha mavjud statistik ma'lumotlar tahlil qilinib, ularning mamlakatlar kesimidagi nisbiy ko'rsatkichlari o'rganildi.

Bu borada qayta jinoyatchilik darajasi bo'yicha eng past ko'rsatkich Norvegiya (17,6%), Singapur (19,1%) va Islandiya (21,2%), o'rtacha ko'rsatkich Avstriya (24,3%), Niderlandiya (24,6%), Kanada (27,9%), Daniya (32%), Shvetsiya (32%), Finlyandiya (33%) va AQSH (32,1%) [1], eng yuqori ko'rsatkich Chili (40%) va Janubiy Afrika (86-94%) [2] davlatlarida kuzatildi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, qayta jinoyatchilik darajasi 17–24 foizgacha bo'lgan davlatlarda jazoni ijro etish muassasalariga jazoni o'tash uchun emas, balki shaxsni jamiyatga qaytarish uchun mo'ljallangan muassasa sifatida qaraladi.

Ozodlikka chiqishdan avval mahkumlarga ijtimoiy ko'nikmalar, shuningdek, psixologik yordam ko'rsatiladi va kasb-hunar o'rgatiladi. Ozod etilganidan keyin esa jamiyat tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanadi.

Qayta jinoyatchilik darajasi 24–35 foizgacha bo'lgan davlatlarda esa mahkumlarni axloqan tuzatish va reabilitatsiya elementlari yetarli darajada tashkil etilmaydi. Shuning uchun ular ozod etilganidan so'ng psixologik va ijtimoiy moslashuvda qiyinchilikka uchraydi.

Qayta jinoyatchilik darajasi 40 foizdan yuqori bo'lgan davlatlarda jinoyatga yetaklovchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar, ya'ni qashshoqlik, ishsizlik, bilimsizlik va ijtimoiy notengliklar mahkum ozod etilgandan so'ng uni yana jinoyatga qaytishiga zamin yaratadi.

Mazkur ko'rsatkich yuqori bo'lgan davlatlarning jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarni reabilitatsiya qilishga yo'naltirilgan mexanizmlar amalda ishlamasligi, norasmiy "qonun va qoidalar" mahkumlarning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatishi, ozod etilgan shaxslar jamiyatda o'z o'rnini topa olmasligini ko'rsatmoqda.

Qayta jinoyat sodir etilishiga ta'sir qiluvchi omillar quyidagilardan iborat:

– *shaxsiy (individual) omillar.* Shaxsning yoshi, jinsi, ta'lim darajasi, kasbiy ko'nikmalari, psixologik xususiyatlari, jinoiy tajribasi, hayotiy mavqeyi kabi yondashuvlarni qamrab oladi. Ayniqsa, yoshlik, bilimsizlik, agressivlik, impulsiv

xulq-atvor va jamiyatdan ajralgan holda yashash kabi xususiyatlar shaxsni jinoiy xatti-harakatlarga moyillashtiradi;

– *ijtimoiy-iqtisodiy omillar.* Jazoni o'tab ozodlikka chiqqan shaxslar ko'p hollarda ishsizlik, turar joy yetishmasligi, moliyaviy muammolar, oilaviy munosabatlardagi keskinlik va jamiyat tomonidan rad etilish kabi muammolarga duch keladi. Ularga nisbatan ishonchsizlik ijtimoiy hayotga moslashuvini qiyinlashtiradi. Bu esa uni yana jinoiy muhitga qaytishga majbur qiladi;

– *jazo va reabilitatsiya tizimi bilan bog'liq omillar.* Jazoni ijro etish muassasalarida ta'lim, kasb-hunarga o'rgatish, psixologik yordam va ijtimoiy moslashuvga qaratilgan reabilitatsiya dasturlarining sifatsiz o'tkazilishi mahkumlarning ijtimoiy hayotga tayyorgarligini pasaytiradi.

Ozodlikka chiqqan shaxslar uchun kuzatuv va qo'llab-quvvatlash tizimlarining (*probatsiya, ijtimoiy xizmatlar*) yetarli darajada faoliyat yuritmasligi, shuningdek, jazo siyosatining faqat jazo-lashga qaratilishi shaxsni tuzatish emas, balki radikallashtirishga olib keladi.

– *axloqiy tarbiya bilan bog'liq omillar.* Jazoni ijro etish muassasalarida jinoiy madaniyatning shakllanishi, "qamoqxona qonunlari" va norasmiy toifalar guruhlar mahkumlarda jamiyatga qarshi salbiy kayfiyatni keltirib chiqaradi. Shuningdek, ma'naviy qadriyatlar, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy adolat to'g'risidagi tasavvurlarning zaifligi, mafkuraviy va axloqiy tarbiyaning yetishmasligi shaxsda ijobiy hayot tarziga qaytish istagini so'ndiradi.

Umumiy qilib aytganda, qayta jinoyat sodir etilishiga qarshi kurashda ijtimoiy profilaktika, ta'lim va reabilitatsiya jarayonlarini mustahkamlash, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarni yaxshilash choralarini ko'rish muhim ahamiyatga ega. Faqatgina barcha sohalarda hamkorlikda va tizimli ishlar amalga oshirilganida, qayta jinoyatchilikni kamaytirish va jamiyatda huquqiy tartibni mustahkamlashga erishish mumkin.

Qayta jinoyatchilik shaxs, jamiyat va davlat uchun quyidagi salbiy oqibatlarini keltirib chiqaradi:

– qayta jinoyatchilik *shaxsni* ozodlikdan mahrum etish muddatining uzayishi va jamiyatdan uzoqlashishi, ijtimoiy moslashuvda yanada kuchli qiyinchiliklar paydo bo'lishi, ruhiy, ma'naviy va jismoniy holatining yomonlashishi, oilaviy va ijtimoiy munosabatlarning buzilishiga olib keladi;

– qayta jinoyatchilik *jamiyatda* huquqbuzarlik muhitining kuchayishi, aholining ijtimoiy adolat to'g'risidagi tasavvurining zaiflashishi, jinoyatchilarga va davlat tizimiga nisbatan ishonchining susayishiga olib keladi;

– qayta jinoyatchilik *davlat organlari*, ya'ni sud, tergov va jazoni ijro etish muassasalarining ish hajmi ko'payishi, mahkumlarni ta'minoti, etap qilish va boshqa xarajatlarning ortishi, reabilitatsiya va resotsializatsiya dasturlarining samarasizligiga dalil sifatida ko'rilishiga olib keladi. Davlatning xalqaro tartib va xavfsizlik indeksiga salbiy ta'sir qiladi [3].

Qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish bo'yicha xorijiy davlatlarda amalga oshirilgan ilg'or tajribalar ko'rib chiqamiz.

2010-yilda Buyuk Britaniyaning Piterboro qamoqxonasida ijtimoiy ta'sir obligatsiyasi (*Social Impact Bond*) loyihasi ishga tushirilgan. Bu loyiha dunyodagi birinchi qayta sodir etiladigan jinoyatchilikni kamaytirishda xususiy sarmoyalarni jalb etgan. Loyihaning maqsadi Piterboro qamoqxonasidan ozod etilgan mahkumlarning 12 oy davomida qayta jinoyat sodir etishining oldini olishga qaratilgan.

Loyiha shartlari shundaki, agar qayta jinoyatchilik darajasi 7,5 foizdan kamaysa, sarmoyadorlar foyda olgan, aks holda, ular mablag'larini yo'qotishgan.

Loyiha doirasida "One Service" deb nomlangan dastur tashkil etilib, unda mahkumlarga qamoqdan chiqqandan so'ng 12 oy davomida psixologik va ijtimoiy yordam ko'rsatiladi, ishga joylashish va turar joy topishida ko'maklashiladi.

Singapurda mavjud "Sariq lenta" loyihasi (*Yellow Ribbon Project*) jinoyat sodir etgan shaxslarni jamiyatga qayta integratsiya qilish va takroriy jinoyatchilik darajasini pasaytirish maq-

sadida amalga oshirilgan keng qamrovli dastur hisoblanadi [4].

"Sariq lenta" – *jinoyat sodir etgan shaxslarga ikkinchi imkoniyat berishni anglatadi.*

Loyihada jinoyat sodir etgan shaxslarni ishga joylashtirishda yordam ko'rsatiladi, jamoatchilikni jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishga undaydi.

Loyihaning "Sariq lenta" jamg'armasi mavjud bo'lib, jamg'arma jazodan ozod etilgan kam ta'minlangan sobiq jinoyatchilarni oliy ta'lim muassasalarida o'qitish uchun mablag' ajratadi va ularni o'z kelajagini qurishlarida qo'llab-quvvatlaydi.

"Sariq lenta" loyihasing rasmiy veb-saytida sobiq mahkumlar uchun mo'ljallangan o'quv kurslari ro'yxati keltirilgan bo'lib, ular o'zlariga mos kursni tanlaydilar va bu kurslar uchun to'liq mablag' jamg'arma tomonidan qoplab beriladi.

Shu bilan birga, kasb-hunarga ega mahkumlar ozod etilishidan avval ularga ish beruvchilar qamoqxonalarga tashrif buyurishib, mahkum ozod etilishidan oldin ish bilan ta'minlanadi [5].

Singapur davlati mazkur loyiha orqali qayta jinoyatchilik darajasini 20 yil davomida (1998 – 2018) 44 foizdan 22 foizga tushirgan.

Mamlakatimizda qayta jinoyatchilikning oldini olish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

1. Ozod etilgan shaxslarning jamiyatga moslashuvini samarali ta'minlash maqsadida *"Mahalla markazlashgan reintegratsiya modeli"*ni joriy etish.

Bu yondashuv doirasida har bir mahalla fuqarolar yig'ini qoshida *reintegratsiya guruhi* tashkil etilib, unga probatsiya xizmati xodimi, mahalla raisi, profilaktika inspektori, psixolog, bandlik xizmati va fuqarolik jamiyati institutlari vakillari jalb etiladi.

Guruhning asosiy vazifasi ozod etilgan shaxsning ijtimoiy moslashuvi, ishga joylashishi, psixologik va huquqiy yordam olishi, doimiy monito-ringda bo'lishi va kriminogen muhitdan uzilib, ijobiy hayot tarziga qadam qo'yishiga ko'maklashishdan iborat.

2. Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish va jinoyatchilik yo'lga qayta kirish ehtimolini kamaytirish maqsadida *"Postpenitensiar ta'lim"* dasturini joriy etish.

Ushbu dastur doirasida ozod etilgan shaxslar uchun 3-6 oylik kasbiy ko'nikmalarga yo'naltirilgan o'quv kurslari tashkil etiladi, ularga qurilish, ustachilik, santexniklik, elektr ishlari, tikuvchilik, zamonaviy servis xizmatlari va axborot texnologiyalari kabi kasblar o'rgatiladi.

Ta'lim jarayonida psixologik treninglar, muhoqot ko'nikmalari va mehnat munosabatlari bo'yicha huquqiy savodxonlik ham qamrab olindi. Dastur hududiy kollejlari, bandlik markazlari va IIV tizimidagi maxsus o'quv markazlari bazasida amalga oshiriladi.

3. Jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarning ozodlikka tayyorlanish jarayonini samarali tashkil etish va ularning jamiyatga qaytgach, qayta jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida *"Qayta jinoyatchilikka qarshi tarbiya modeli"*ni joriy etish.

Ushbu model mahkum ozodlikka chiqishiga kamida 6-12 oy qolganda amalga oshiriladigan maxsus tarbiyaviy, ma'rifiy va ijtimoiy tayyorlov dasturlarini o'z ichiga oladi.

Jumladan, shaxsiy mas'uliyatni anglash, huquqiy savodxonlik, ijtimoiy munosabatlar, muomala madaniyati, oilaviy munosabatlar, mehnat muhitiga moslashish kabi yo'nalishlarda trening va simulyatsiya (tajriba) mashg'ulotlari tashkil etiladi.

4. Qayta jinoyatchilikning oldini olishda manzilli va samarali yondashuvni ta'minlash maqsadida hududiy jinoyat tahlili asosida *"xavfli guruh"* ga kiruvchi shaxslar bilan individual ish olib borish tizimini joriy etish.

Bu mexanizmga muvofiq, ichki ishlar organlari tomonidan jinoyatchilik ko'rsatkichlari tahlil qilinib, jinoyat sodir etish xavfi yuqori bo'lgan shaxslar alohida ro'yxat asosida aniqlanadi.

Har bir shaxs uchun individual reabilitatsiya va nazorat rejasi tuziladi. Rejaga ishga joylashish,

ta'limga yo'naltirish, psixologik yordam ko'rsatish, mahalla va oila bilan ishlash, profilaktik muloqotlar tashkil etish kabi choralar kiritiladi. Bu jarayonda mahalla, sog'liqni saqlash va bandlik tuzilmalari bilan uzviy hamkorlik yo'lga qo'yiladi.

5. Jinoyatchilikning oldini olishda aholining ongi va dunyoqarashiga ta'sir qiluvchi vositalardan samarali foydalanish maqsadida axborot-ruhiy va diniy-ma'rifiy profilaktika tizimini kuchaytirish.

Bu chora-tadbirlar doirasida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa kommunikatsiya kanallari orqali huquqiy madaniyatni oshirish, zo'ravonlik va jinoyatni aqlan oqlashga qarshi muvassaf munosabatni shakllantirish, jamiyatda adolat va insoniylik tamoyillarini targ'ib qilishga qaratilgan kontentlar tayyorlanadi.

Shu bilan birga, mahallalar, ta'lim muassasalari, JIEMlari va boshqa joylarda soha mutaxassislari, psixolog va nufuzli din ulamolari ishtirokida turli mavzularda ma'rifiy uchrashuvlar, ochiq muloqotlar va maxsus treninglar tashkil etiladi.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash joizki, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish – nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki butun jamiyat zimmasiga tushadigan dolzarb vazifadir. Tahliliy ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ozodlikdan keyingi davrda shaxsning jamiyatga moslashishi, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikka erishishi, ma'naviy qo'llab-quvvatlanishi yetarlicha ta'minlanmasa, jinoyat yo'lga qaytish ehtimoli yuqori bo'ladi.

Shu munosabat bilan, qayta jinoyat sodir etishning asosiy omillarini bartaraf etishga qaratilgan bir qator ilmiy asoslangan va amaliy takliflar ishlab chiqildi. Jumladan, "mahalla markazlashgan reintegratsiya modeli", "postpenitensiar ta'lim" dasturi, JIEMlarida "qayta jinoyatchilikka qarshi tarbiya modeli"ni joriy etish, xavfli guruhlar bilan manzilli ishlash, kriminologiya ilmiy tahlil va prognozlash markazini tashkil etish hamda axborot-ma'rifiy va diniy

profilaktikani kuchaytirish kabi chora-tadbirlar orqali bu muammoni bosqichma-bosqich bartaraf etish imkoniyati yaratiladi.

Ta'kidlash lozimki, ushbu choralar nafaqat qayta jinoyatchilikni kamaytirish, balki inson kapitaliga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish, jamiyatda

ijtimoiy barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shu bois, ushbu takliflarni tizimli ravishda amaliyotga tatbiq etish davlat organlari, mahalla instituti, fuqarolik jamiyati va fuqarolarning o'zaro hamkorligi asosida tashkil etilishi zarur.

Foydalanilgan manbalar

1. Buyuk Britaniya Parlamentining rasmiy veb-sayti / www.committees.parliament.uk.
2. ilmiy-texnik yangiliklar va tadqiqotlar haqida maqolalarni e'lon qiluvchi axborot portali / www.phys.org.
3. Smith. J. Recidivism and Social Reintegration: Challenges and Solutions. – London: Academic Press, 2021. – 275 r.
4. Singapurdagi "Yellow Ribbon Project"ning rasmiy sayti / www.yellowribbon.gov.sg
5. Singapur Respublikasi Ichki ishlar vazirligining rasmiy sayti / www.mha.gov.sg

